

28/3-8-son

17 fevral 2024 yil.



“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya vazirligi
Ijro apparati rahbari

A. Sh. Fazilov

2024-yil “___” -fevral

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-sonli Qarorining ijrosini ta’minlash yuzasidan
ISH REJASI

T/r	Indikatorlar raqami va amalga oshirilgan ishlarni baholash mezonlari	Asosiy ijrochi, hamijrochi	Imzolash va tasdiqlash jarayoni	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Ijro muddati
1.	1.1.1. Davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan mahalliy davlat hokimiyati organlari (keyingi o‘rinlarda – davlat tashkilotlari)da korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha quyidagi ichki idoraviy hujjatlarning mavjudligi va zaruratga qarab yangilanib borilishi: korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati; odob-axloq qoidalari; korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti; manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha nizom; aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamenti; xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha yo‘riqnoma; kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnoma; ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnoma; korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti; korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish reglamenti; korrupsiyaviy xatti-harakatlar va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha reglament; davlat xaridlarini o‘tkazish to‘g‘risidagi nizom. <i>(Mazkur to‘plamdagi hamma hujjatlar qabul qilingan bo‘lsa 3 ball, 7–11 tasi qabul qilingan bo‘lsa 2 ball, 3–7 tasi qabul qilingan bo‘lsa 1 ball, 0–3 tasi qabul qilingan bo‘lsa 0 ball).</i>	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘limi (keyingi o‘rinlarda komplayens nazorati bo‘limi) Axborot xizmati bo‘limi		Tasdiqlangan ichki idoraviy hujjatlarning elektron shakli elektron platformaga ilova qilinadi. Bundan tashqari, mazkur hujjatlarning elektron shakli vazirlik veb-saytiga qo‘yiladi (havolasi yoziladi). Zarur hollarda ma’lumotlar yangilab boriladi, havolalarning ishlashi tekshirib turiladi.	har oyda

2.	1.2.1.1. Korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari: kamida 4 ta aloqa kanalining (masalan, rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifa, ishonch telefoni, elektron manzil) tashkil etilgani. <i>(Aloqa kanallari to'liq mavjud bo'lsa 1 ball, aksincha bo'lsa 0 ball).</i>	Komplayens nazorati bo'limi		Veb-sayt va boshqa OAVlardagi ma'lumotlar havolasi ilova qilinadi. Sinov tarzida aloqa kanallarining ishlari tekshirib turiladi, zarur hollarda ma'lumotlar yangilanadi (ma'lumotnoma tuziladi).	har oyda
3.	1.2.1.2. Rasmiy veb-saytda va boshqa OAVlarda korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari haqidagi ma'lumotlarning, shuningdek, korrupsiyaga qarshi ichki idoraviy hujjatlarning joylashtirilgani. <i>(Mavjud bo'lsa 1 ball, mavjud bo'lmasa 0 ball).</i>	Komplayens nazorati bo'limi		Veb-sayt va boshqa OAVlardagi ma'lumotlar havolasi ilova qilinadi	doimiy
4.	1.2.1.3. Rasmiy veb-saytda korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari haqidagi yillik hisobotning mavjudligi. <i>(Mavjud bo'lsa, 1, mavjud bo'lmasa, 0 ball).</i> Hisobotning namunaviy shakli	Komplayens nazorati bo'limi Murojaatlar bilan ishlash bo'limi	Komplayens nazorat bo'limi hamda Murojaatlar bilan ishlash bo'limlari rahbarlari imzolaydi.	Vazirlikning Murojaatlar bo'limi tomonidan korrupsiya holatlariga oid har oylik ma'lumotlarni shakllantirib, Komplayens nazorati bo'limiga taqdim etadi. Komplayens nazorati bo'limi tomonidan ma'lumotlar umumlashtirilib, rasmiy veb-saytga korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari haqidagi choraklik va yillik hisobotlar joylashtiriladi. Veb-saytdagi havola platformaga kiritiladi.	har oyda
5.	1.2.2.1. Vakant o'rinlarga kadrlarni tanlov asosida qabul qilish tizimining mavjudligi. <i>(Hisobot davrida 80–100 foiz xodimlar ochiq tanlov asosida ishga qabul qilingan bo'lsa 3 ball, 60–79 foizi tanlov asosida qabul qilingan bo'lsa 2 ball, 30–59 foizi tanlov asosida qabul qilingan bo'lsa 1 ball, 0–29 foizi tanlov asosida qabul qilingan bo'lsa 0 ball).</i>	Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti Komplayens nazorati bo'limi		1. Vakant o'rinlarga nomzod bo'yicha o'tkazilgan tanlov materiallari (suhbat yoki test bayonnomalari, video material va boshqalar) hamda ochiq tanlovning har oylik natijalari yuzasidan ma'lumotnoma tuzilib, keyingi oyning 5-sanasigacha umumlashtirish uchun Komplayens bo'limiga beriladi. Ochiq tanlovning har oylik natijalari yuzasidan ma'lumotnomalar markaziy apparat hamda hududiy bosh boshqarmalarni qamrab olishi lozim. 2. Berilgan ma'lumotnomalar Komplayens bo'limi tomonidan umumlashtirib, e-anticor.uz elektron platformasiga ilova qilinadi.	har oyda

6.	1.2.2.2. Rasmiy veb-saytda ishga qabul qilish to'g'risidagi e'lonlar va axborotlarning mavjudligi. <i>(Mavjud bo'lsa 1 ball, mavjud bo'lmasa 0 ball).</i> Hisobotning namunaviy shakli	Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti	Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti rahbari imzolaydi va muhr qo'yiladi	1. Ishga qabul qilish to'g'risidagi e'lonlar va axborotlar veb-saytga qo'yiladi va havolasi ilova qilinadi. Markaziy apparat va hududiy boshqarmalar to'liq qamrab olinishi lozim. 2. Har oylik natijalar ma'lumotnoma sifatida shakllantiriladi va keyingi oyning 5-sanasigacha umumlashtirish uchun komplayens bo'limiga beriladi.	har oyda
7.	1.2.2.3. Mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi shartlarning kiritilgani. <i>(Mavjud bo'lsa 1 ball, mavjud bo'lmasa 0 ball).</i> Hisobotning namunaviy shakli	Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti	Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti rahbari tasdiqlaydi va muhr qo'yiladi	Korrupsiyaga qarshi shartlar bilan mehnat shartnomasida tanishganini imzosi bilan tasdiqlagan xodimlar ro'yxati har oyning 5-sanasigacha umumlashtirish uchun komplayens bo'limiga beriladi.	har oyda
8.	1.2.2.4. Korrupsiya holatlari haqida xabar berish mexanizmi, xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish, ularning ta'qibga olinmasligi kafolatining mavjudligi. <i>(Tegishli mexanizm mavjud bo'lsa 1 ball, mavjud bo'lmasa 0 ball).</i>	Komplayens nazorati bo'limi		Mazkur masalalarni tartibga soluvchi ichki reglament, xodimlar ro'yxati va statistik ma'lumotlar ilova qilinadi	har chorakda
9.	1.2.3.1. Xodimlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyani to'ldirish. <i>(Hisobot davrida manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyani to'ldirgan xodimlar 100 foiz bo'lsa 3 ball, 70–99 foiz bo'lsa 2 ball, 30–69 foiz bo'lsa 1 ball, 0–29 bo'lsa 0 ball).</i> Hisobotning namunaviy shakli	Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti	Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti rahbari tasdiqlaydi va muhr qo'yiladi	Ishga qabul qilishda, lavozimi o'zgarayotganda, rotatsiya qilinayotganda va yillik deklaratsiyani to'ldirgan xodimlarning Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti tomonidan tasdiqlangan ro'yxati shakllantiriladi va keyingi oyning 5-sanasigacha komplayens bo'limiga umumlashtirish va platformaga joylashtirish uchun beriladi.	har oyda

10.	1.2.3.2. Ishga qabul qilinuvchi nomzodlar ustidan o'tkazilgan tekshiruvlar soni. <i>(Hisobot davrida 100 foiz nomzodlar tekshirilgan bo'lsa 3 ball, 70–99 foizi tekshirilgan bo'lsa 2 ball, 30–69 foizi tekshirilgan bo'lsa 1 ball, 0–29 foizi tekshirilgan bo'lsa 0 ball).</i> Hisobotning namunaviy shakli	Komplayens nazorati bo'limi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti	Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti rahbari tasdiqlaydi va muhr qo'yiladi	1. Ishga qabul qilish uchun hujjat topshirgan nomzodlar materiallari 2023-yil 11-iyuldagi 133-xdfu buyrug'i asosida tekshiruvlar o'tkazish uchun komplayens nazorati bo'limiga beriladi. 2. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti tomonidan ishga qabul qilish uchun hujjat topshirgan nomzodlar haqidagi oylik ma'lumotlar shakllantiriladi va ularga nisbatan o'tkazilgan tekshiruvlar to'g'risida xulosalar (xulosalar soni) haqidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.	har oyda
11.	1.2.3.3 Aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi holatlari va uni tartibga solish bo'yicha qabul qilingan choralar. <i>(Hisobot davrida manfaatlar to'qnashuvi aniqlanmagan yoki aniqlangan holatlarga choralar ko'rilgan bo'lsa 2 ball, manfaatlar to'qnashuvi aniqlangan holatlarga choralar ko'rilmagan bo'lsa 0 ball).</i> Hisobotning namunaviy shakli	Komplayens nazorati bo'limi		Aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi holatlari reyestri Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti shakllantirilib, umumlashtirilgan oylik ma'lumotlar komplayens bo'limiga umumlashtirish va platformaga joylashtirish uchun taqdim qilinadi.	har oyda
12.	1.2.3.4. Kontragentlar ustidan o'tkazilgan tekshiruvlar soni. <i>(Hisobot davrida 100 foiz kontragentlar tekshirilgan bo'lsa 3 ball, 70–99 foizi tekshirilgan bo'lsa 2 ball, 30–69 foizi tekshirilgan bo'lsa 1 ball, 0–29 foizi tekshirilgan bo'lsa 0 ball).</i> Hisobotning namunaviy shakli	Ishlar boshqarmasi Komplayens nazorati bo'limi	Ishlar boshqarmasi rahbari imzolaydi	1. Ishlar boshqarmasi tomonidan tuzilgan shartnomalar to'g'risidagi ma'lumotlar keyingi oyning 5-sanasigacha komplayens bo'limiga umumlashtirish va platformaga joylashtirish uchun beriladi. 2. Komplayens nazorati bo'limi tomonidan o'tkazilgan tekshirish natijalari yuzasidan ijobiy yoki salbiy xulosalar shakllantirilib, reyestrga kiritiladi. Ijobiy va salbiy xulosalar nusxalari ilova qilinadi.	har oyda
13.	1.2.4.1. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotlarning mavjudligi va sifatli to'ldirilgani. <i>(Mazkur indikator bo'yicha ballar hisobotlarning mavjudligi va sifatli to'ldirilganligidan kelib chiqib, 0–3 ball).</i> Hisobotning namunaviy shakli	Komplayens nazorati bo'limi	Komplayens nazorati bo'limi rahbari imzolaydi	Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida umumiy hisobot hamda korrupsiyaga qarshi davlat dasturida nazarda tutilgan chora-tadbirlarning ijrosi haqidagi hisobot har oyda kiritib boriladi, har chorakda	har oyda

				umumlashtiriladi. Hisobot platformaga yuklanadi.	
14.	1.2.4.2. Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish bo'yicha rejadagi tadbirlarning bajarilgani. <i>(Mazkur indikator bo'yicha ballar rejadagi tadbirlarning sifatli va o'z vaqtida bajarilganligidan kelib chiqib 0–3 ball oralig'ida tanlanadi).</i> Hisobotning namunaviy shakli	Komplayens nazorati bo'limi	Komplayens nazorati bo'limi rahbari imzolaydi	Reja (tashkilotning barcha jarayonlarini, monitoring va nazorat qilinadigan davri va tekshiruv muddatlarini o'z ichiga olgan) va uning ijrosini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi	har oyda
15.	1.2.4.3. Hisobot davrida aloqa kanallari orqali kelib tushgan korrupsiyaga oid xabarlar bo'yicha va monitoring natijalariga ko'ra korrupsiyaviy harakat deb hisoblangan holatlar yuzasidan xizmat tekshiruvlari o'tkazilgani. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilikning buzilgani to'g'risida tasdiqlangan holatlarning (qonunchilik hujjatlari kesimida) aniqlangani. Davlat tashkilotlarida tasdiqlangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha nazorat va tartib-taomillarning buzilish holatlari (ichki hujjatlar kesimida), korrupsiyaviy xatti-harakatlarga yo'l qo'yilganlik holatlarining aniqlangani. <i>(100 foiz tekshirilgan yoki o'rganilgan bo'lsa 3 ball, 70–99 foiz tekshirilgan bo'lsa 2 ball, 30–69 foiz tekshirilgan bo'lsa 1 ball, 0–29 foiz o'rganilgan bo'lsa 0 ball).</i> Hisobotning namunaviy shakli	Komplayens nazorati bo'limi	Komplayens nazorati bo'limi rahbari imzolaydi	Aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarni ro'yxatga olish reyestri, xizmat tekshiruvlari reyestri nusxasi ilova qilinadi. Aybdorlar aniqlangan holatlar soni band bo'yicha bo'lib ko'rsatiladi	har oyda
16.	1.2.4.4. Korrupsiyaga oid qonunchilik va ichki idoraviy talablarni buzgan xodimlarga qo'llanilgan jazolar. <i>(Mazkur indikator bo'yicha ballar, sodir etilgan harakat va qo'llanilgan jazo tabiatidan kelib chiqib, 0–3 ball oralig'ida tanlanadi. Hisobot yilida o'tkazilgan tekshirishlar va kelib tushgan xabarlar tahlili asosida qonunchilik va ichki idoraviy talablarni buzgan xodimlar aniqlanmagan bo'lsa 2 ball).</i> Hisobotning namunaviy shakli	Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti	Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti rahbari imzolaydi va muhr qo'yiladi	Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti tomonidan tasdiqlangan korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilik va ichki idoraviy talablarni buzgan xodimlar soni hamda ularga qo'llanilgan choralar ko'rsatilgan ro'yxati keyingi oyning 5-sanasigacha umumlashtirish uchun Komplayens bo'limiga beriladi.	har oyda
17.	2.1. Davlat tashkilotining barcha funksiya va vazifalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash bo'yicha baholash o'tkazilgani. <i>(Baholash qamrovi 100 foiz bo'lsa 15 ball, 70–99 foiz bo'lsa 10 ball, 30–69 bo'lsa 5 ball, 0–29 foiz bo'lsa 0 ball tanlanadi).</i> Hisobotning namunaviy shakli	Komplayens nazorati bo'limi	Komplayens nazorati bo'limi rahbari imzolaydi	Davlat tashkilotining birlashgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi, korrupsiya xavfiga eng ko'p moyil bo'lgan funksiya va lavozimlar ro'yxati ilova qilinadi.	2024-yil fevral–aprel

18.	2.2. Aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha ko'rilgan choralar. <i>(Mazkur indikator bo'yicha ballar aniqlangan xavf-xatar va minimallashtirish uchun ko'rilgan choralar tabiatidan kelib chiqib 0–15 ball oralig'ida tanlanadi).</i> Hisobotning namunaviy shakli	Komplayens nazorati bo'limi	komplayens nazorati bo'limi rahbari imzolaydi	Davlat tashkilotlari, ularning hududiy va tarkibiy bo'linmalarining korrupsiyaga qarshi kurash dasturi ("Yo'l xaritasi") va uning amalga oshirilganini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.	2024-yil may
19.	3.1. Davlat tashkiloti rahbarining xodimlar va jamoatchilik uchun korrupsiyaga qarshi kurashishga oid murojaatining mavjudligi, uning xodimlar e'tiboriga yetkazilgani, hay'at yig'ilishlari va boshqa yig'ilishlarda korrupsiyaga qarshi kurashish holatlarining ko'rib chiqilgani. <i>(Mavjud bo'lsa 1 ball, mavjud bo'lmasa 0 ball tanlanadi).</i>	Komplayens nazorati bo'limi Axborot xizmati		Murojaat e'lon qilingan manba havolasi, tegishli hay'at yig'ilishlari va boshqa yig'ilishlar bayonnomasi ilova qilinadi	2024-yil davomida
20.	3.2. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tuzilmasi tuzilgani, uning zarur resurslar, shtat birliklari va boshqa moddiy-texnik baza bilan ta'minlangani. <i>(Mazkur indikator bo'yicha ballar Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tuzilmalari orasida elektron platformada o'tkaziladigan so'rovnoma natijalaridan kelib chiqib, 0–12 ball oralig'ida tanlanadi).</i>	Komplayens nazorati bo'limi		Komplayens tomonidan e-anticor.uz elektron platformasidagi so'rovnoma to'ldiriladi. (So'rovnomani to'ldirishda Markaziy apparat, hududiy va tarkibiy tuzilmalaridagi shtat birligini to'g'ri kiritish, korrupsiya qarshi mas'ul xodimlar sonini to'liq to'ldirish lozim).	har chorakda
21.	3.3. Davlat tashkilotlari rahbarlari va ularning o'rinbosarlari tomonidan OAV va tadbirlarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chiqishlar. <i>(Hisobot davridagi har yarim yilda kamida 1 marta mavjud bo'lsa 2 ball, mavjud bo'lmasa 0 ball tanlanadi).</i>	Komplayens nazorati bo'limi Axborot xizmati bo'limi		Ma'lumotlar va materiallar havolasi ilova qilinadi	2024-yil davomida
22.	4.1.1. Xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki idoraviy hujjatlar bilan tanishganlik holati hamda korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi. <i>(Barcha xodimlar tanishtirilgan bo'lsa 5 ball, 70–99 foizi tanishtirilgan bo'lsa 2 ball, 30–69 foizi tanishtirilgan bo'lsa 1 ball, 0–29 foizi tanishtirilgan bo'lsa 0 ball tanlanadi).</i> Hisobotning namunaviy shakli	Komplayens nazorati bo'limi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti	Komplayens nazorati bo'limi rahbari imzolaydi	1. Korrupsiyaga qarshi ichki idoraviy hujjatlar bilan tanishganini imzosi bilan tasdiqlagan xodimlar ro'yxati keyingi oyning 5-sanasigacha komplayens bo'limiga umumlashtirish va platformaga joylashtirish uchun beriladi. 2. Komplayens bo'limi hamda Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti tomonidan xodimlarning korrupsiyaga qarshi asosiy talablar va tartib-taomillardan xabardorligi yuzasidan yakuniy monitoring natijalari hamda ushbu talablar va tartib-taomillarga rioya	har oyda

				etilishi ustidan nazorat yakunlari ilova qilinadi.	
23.	4.2.1. Hisobot yilida xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirilgani. <i>(Mazkur indikatora oldingi hisobot yilidagi ko'rsatkichlar soni taqqoslanadi. Bunda, bilim va ko'nikmalari oshirilgan xodimlarning sonida ijobiy farq bo'lsa yoki o'zgarish bo'lmasa 1 ball, agar kamayish bo'lsa 0 ball tanlanadi).</i> Hisobotning namunaviy shakli	Komplayens nazorati bo'limi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti	Komplayens nazorati bo'limi rahbari imzolaydi hamda Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti rahbariyati tasdiqlaydi va muhr qo'yiladi.	Davlat tashkiloti tizimi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha umumiy va maxsus o'qitishga doir ma'lumotlar (tasdiqlangan ro'yxat) va tahlil natijalari ilova qilinadi.	har oyda
24.	4.2.2. Davlat tashkiloti xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tayyorlash va qayta tayyorlashga oid maxsus o'quv dasturlari, qo'llanmalar mavjudligi. <i>(Mavjud bo'lsa 1 ball, mavjud bo'lmasa 0 ball tanlanadi).</i>	Komplayens nazorati bo'limi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti		Korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan lavozimda ishlovchi va boshqa xodimlarni, shu jumladan, ishga yangi qabul qilingan xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tayyorlash, qayta tayyorlashga oid maxsus o'quv dasturlari, qo'llanmalar ilova qilinadi.	har oyda
25.	4.2.3. Ishga yangi qabul qilingan xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish tizimining mavjudligi. <i>(Mavjud bo'lsa 3 ball, mavjud bo'lmasa 0 ball tanlanadi).</i> Hisobotning namunaviy shakli	Komplayens nazorati bo'limi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti	Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti rahbariyati tasdiqlaydi va muhr qo'yiladi.	Ishga yangi qabul qilingan xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirilgani bo'yicha Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti tomonidan tasdiqlangan ma'lumotlar ilova qilinadi	har oyda

26.	4.2.4. Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha treninglar o'tkazish: barcha xodimlar uchun; korrupsiyaviy xavf yuqori darajada bo'lgan funksiyalarni bajaruvchi bo'linmalar uchun. <i>(Xodimlarning 70–100 foizi o'qitilgan bo'lsa 5 ball, 50–69 foizi o'qitilgan bo'lsa 3 ball, 30–49 foizi o'qitilgan bo'lsa 2 ball, 0–29 foizi o'qitilgan bo'lsa 0 ball tanlanadi).</i> Hisobotning namunaviy shakli	Komplayens nazorati bo'limi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti	Komplayens nazorati bo'limi rahbari imzolay hamda Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti rahbariyati tasdiqlaydi va muhr qo'yiladi..	Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti tomonidan tasdiqlangan o'qitish turlari, shakllari, o'qitilgan xodimlar soni hamda ularning lavozimi va bo'linmalari ro'yxati jadval shaklida ilova qilinadi. Mazkur indikator xodimlarning umumiy ulushiga nisbatan baholashdan o'tkaziladi.	har oyda
27.	5.1. Korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida tashkil etilgan tadbirlar soni. <i>(Mazkur indikator oldingi hisobot yilidagi ko'rsatkichlar soni taqqoslanadi. Bunda, o'tkazilgan tadbirlar sonida ijobiy farq bo'lsa yoki o'zgarish bo'lmasa 1 ball, tadbirlar sonida kamayish bo'lsa, 0 ball tanlanadi).</i> Hisobotning namunaviy shakli	Komplayens nazorati bo'limi	Komplayens nazorati bo'limi rahbari tasdiqlaydi	Statistik ma'lumotlar ilova qilinadi.	har oyda
28.	5.2. Korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida tashkil etilgan tadbirlarning qamrov darajasi. <i>(Mazkur indikator oldingi hisobot yilidagi ko'rsatkichlar soni taqqoslanadi. Bunda, o'tkazilgan tadbirlarning qamrov darajasida ijobiy farq bo'lsa yoki o'zgarish bo'lmasa 2 ball, qamrov darajasida kamayish bo'lsa 0 ball tanlanadi).</i> Hisobotning namunaviy shakli	Komplayens nazorati bo'limi	Komplayens nazorati bo'limi rahbari tasdiqlaydi	Statistik ma'lumotlar (ishtirokchilar soni, hududiy qamrov) ilova qilinadi.	har oyda
29.	5.3. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid tarqatilgan ko'rgazmali materiallar, qo'llanmalar, ijtimoiy audio va videoroliklar soni. <i>(Mazkur indikator oldingi hisobot yilidagi ko'rsatkichlar soni taqqoslanadi. Bunda, tarqatilgan materiallar sonida ijobiy farq bo'lsa yoki o'zgarish bo'lmasa 2 ball, tarqatilgan materiallar sonida kamayish bo'lsa 0 ball tanlanadi).</i> Hisobotning namunaviy shakli	Komplayens nazorati bo'limi	Komplayens nazorati bo'limi rahbari tasdiqlaydi.	Tarqatilgan ko'rgazmali materiallar, qo'llanmalar, ijtimoiy audio va videoroliklar statistik ma'lumotlar ilova qilinadi	har oyda